

URUSH SHAROITIDA O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINI QAYTA QURISHNING ASOSIY VAZIFALARI.

Sharipova Dilrabo Ramazoovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17528993>

Annotatsiya

Ushbu maqolada "Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda qishloq xo'jalik tarmoqlarini qayta qurishning asosiy vazifalari" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda urush sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jaligini qayta qurishning asosiy vazifalari, mamlakat va frontni oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanishi muammolari malumotlarining taxlili amalga oshirilgan. Urush yillarida non va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ta'minoti masalasi bilan birga taqsimot masalasini muammolari yoritib berilgan.

Annotatsion.

This article is devoted to the topic "The main tasks of the reconstruction of agricultural sectors in Uzbekistan during the Second World War", in which the main tasks of the reconstruction of agriculture in Uzbekistan during the war, the problems of providing the country and the front with food and agricultural products, as well as the problems of distribution during the war years are analyzed.

Абстрактный

Данная статья посвящена теме «Основные задачи восстановления отраслей сельского хозяйства Узбекистана в годы Второй мировой войны», в которой анализируются основные задачи восстановления сельского хозяйства Узбекистана в годы войны, проблемы страны и фронта продовольствием обеспечения сельскохозяйственной продукцией, а распределения в зонах боевых действий. также проблемы ее

Kalit so'zlar; O'zbekiston xalqi, jahon urushi, fashistlar Germaniyasi, Ittifoq, fidoiylilik va uyushqoqlik, front, evakuatsiya,

Keywords: People of Uzbekistan, World War II, Nazi Germany, the Alliance, dedication and unity, front, evacuation,

Ключевые слова: народ Узбекистана, мировая война, фашистская Германия, Альянс, самоотверженность и организация, фронт, эвакуация.

Insoniyat tarixida eng yirik harbiy to'qnashuv hisoblangan Ikkinchi jahon urushi XX asr fojiasi sifatida tarixga kirdi, unda dunyo aholisining beshdan to'rt qismi ishtirok etdi.

1941 yil 22 iyunda fashistlar Germaniyasi, o'zaro hujum qilmaslik haqidagi shartnoma (1939 yil, avgust) mavjudligiga qaramay, sobik Ittifoqqa qarshi xiyonatkorona hujum boshlaydi. Fashistlar Germaniyasi va uning ittifoqchilari

sobiq Ittifoqga qarshi 5,5 mln soldat va ofitserini o'zida birlashtirgan 193 diviziya, 5 ming samolyot, 4,5 ming tank, 50 mingdan ortiq to'p va minomyotlarini ishga solgan edi. Fashistlarning maqsadi Sovet Iggifoqini bosib olish, boyligini talash, millionlab kishilarni qirish va kolganlarini qul qilish edi. 1941 yil 22 iyun kuni mamlakat hukumati urushning boshlanishi munosabati bilan xalqqa murojaatnoma qabul qildi va o'sha kuniyoq radio orqali e'lon qilindi. Unda xalqni galaba uchun mustahkam jiplashishga, fidoiylik va uyushqoqlik namunalari ko'rsatishga chaqirdi. Mazkur murojaatnomada: **«Bizning ishimiz haq ish Dushman tor-mor keltirilajak! Biz g'alaba qilamiz!»** deb qayd etilgan edi.¹ 1941-1945-yillardagi ikkinchi jaxon urushida ko'pmillatli O'zbekiston xalqi jang maydonlarida va front ortida ulkan jasorat va matonat ko'rsatib „ustidan qozonilgan g'alabani taminlashda munosib hissa qo'shdi. Urushda qatnashgan 1,5 milliondan ortiq o'zbekistonliklarning yarim milliondan ortig'i halok bo'ldi, 133 mingga yaqini bedarak yo'qoldi, 60 mingdan ziyodi nogiron bo'lib qaytdi. 1941-1945 -yillardagi Ikkinchi jahon urushida ko'pmillatli O'zbekiston xalqi jang maydonlarida va front ortida ulkan jasorat va matonat ko'rsatib, fashizm ustidan qozonilgan g'alabani taminlashga munosib hissa qo'shdi. Urushda qatnashgan 1,5 milliondan ortiq o'zbekistonliklarning yarim milliondan ortig'i halok bo'ldi, 133 mingga yaqini bedarak yo'qoldi, 60 mingdan ziyodi nogiron bo'lib qaytdi.²

O'sha g'oyat og'ir va suronli davrda yurtimiz frontning mustahkam taminot bazasiga aylandi, bu yerdagi sanoat korxonalari harbiy sohaga moslashtirilib, ularning faoliyati front ehtiyojlari uchun yo'naltirildi.³

O'zbekistonga evakuatsiya qilingan yuzdan ziyod zavod va fabrikalarni tiklashda fuqarolarimiz bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdi. Urush olovi ichida qolgan hududlardan yurtimizga 1 million nafardan ortiq kishi ko'chirib keltirildi. Ularning 200 ming nafari bolalar edi. Xalqimiz ularga boshpana berib, so'nggi burda nonini ham baham ko'rib, ota-onasidan ajralgan bolalarni o'z farzandlari qatori tarbiyasiga olib, butun dunyoga haqiqiy insonparvarlik fazilatlarini namoyish etdi⁴.

Afsuski, O'zbekiston xalqining bu qonli urush davrida frontda va front ortida kechgan og'ir va mashaqqatli hayoti, fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan ulkan hissasini o'zida har tomonlama aks ettiradigan yaxlit ilmiy-tarixiy kitob yoki hujjatlar to'plami shu paytga qadar yaratilmagan. Urush yillarida

¹ Hidoyatov G. Jaxon tarixi (1941-1945 yillar). - T. 2002

² Tippelyukirx K Istorik Vtoroy miroioy voyii. (1939-1945gg) - SP6. 1994.1.1

³ Uzbekistan v gody Velikoy Otchestvennoy voyiny (1941-1945)

²⁴ Вклад трудящихся Узбекистана в победу в Великой Отечественной войне. – Ташкент: Фан, 1975. – 250 с.



xalqimiz tomonidan amalga oshirilgan buyuk ishlarni, uning kuchli iroda va qahramonligini, o'sha davr haqiqatini kelgusi avlodlarga aniq misollar asosida yetkazish, ularni vatanparvarlik va jasorat ruhida tarbiyalash borasida bunday manbalar g'oyat muhim ahamiyatga ega.

1941 yil iyuldan 1941 yil noyabrga qadar Sharkka 1360 yirik xarbiy korxonalar, 57 shundan O'zbekistonga 104 ta zavod-fabrikalar eva-kuatsiya kilindi. Jumladan, Toshkentga Moskvadan Chkalov nomli avia sozlik (1941 yil noyabrda), «Elsktrokabel'», «Pod'yomnik», «Krasnyy put'» zavodlari, Leningraddan «Vulkon» zavodi sexi, to'qimachilik va mashinasozlik zavodlari (1941 yil avgustda), Rostovdan «Rossel'mash» zavodi (1941 kuzida), Xarkovdan Arqon zavodi (1941 yil oktyabrda), (shu zavod asosida Toshkent «Kinap» yiguruv tikuv fabrikasi vujudga keldi) va boshka shaxarlardan ko'plab zavod va korxonalar ko'chirib kel-tirildi.⁵ 1941 yil dekabrga kelib, Toshkentdagi 63 ta korxonalar va respublikadagi boshka 230 ta korxonalar mahsulotlar bera boshladi. Shuningdek, urush yillarida O'zbekistonda 280 ta yangi korxonalar barpo etilib ishga tushirildi.⁵⁸ Barpo etilayotgan korxonalarning ko'plari to'liq jihozlanmasdan majburiy sur'atda tezkorlik bilan ishga tushirilib, front uchun maxsulot bera boshlagan edi.⁶

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi –Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G'alabani 75 yilligini munosib nishonlash to'g'risida qarorida takidlanganidek, –Ko'pmillatli O'zbekiston xalqi butun taraqqiyparvar insoniyat qatori 1941 – 1945 yillarda Ikkinchi jahon urushida faol ishtirok etib, fashizm ustidan qozonilgan buyuk G'alabani taminlashga munosib hissa qo'shdi. El-yurtimizning urush yillarida ko'rsatgan mardlik va qahramonligi biz uchun ulkan jasorat maktabi, g'urur-iftixor manbai bo'lib, vaqt o'tgani sayin bu o'lmas qadriyatlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga O'zbekiston xalqining qo'shgan munosib hissasi hamda ushbu tarixiy voqeaning 2020-yilda nishonlanadigan 75 yilligiga bag'ishlangan kitob-albomni tayyorlash va nashr etish haqidagi taklifi maqullansin.⁷

Mohiyatan bo'lingan duneni qayta bo'lib olish maqsadida boshlangan ikkinchi

⁵ Усмонов Қ, М. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). - Т , 2002

⁶ “ Усмонов Қ, М. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). - Т , 2002 - Б 136

⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрь ПҚ-4495- сонли —Иккинчи жаҳон урушида қозонилган Ғалабанинг 75 йиллигини муносиб нишонлаш тўғрисида қарори. - <https://lex.uz/docs/4664439>

jahon urushi Germaniya va uning ittifoqchilari tomonidan bosqinchilik va talonchilik urushi bo'lib tarix sahifasiga yozildi. Tez fursatda bu urush dunyoning 60 dan ortiq mamlakatini, yer yuzi aholisining qariyb 80 foizini o'z domiga tortdi.

Urush 1939yil 1 sentyabrda fashistlar Germaniyasining Pol'shaga urush e'lon qilishi bilan boshlandi va shu yili 3 sentyabrda Ang-liya, Frantsiya o'z ittifoqchisi Pol'shani yoqlab urushga kirdi va shu tariqa bu urush jahon urushi tusini oldi.

Fashistlar Germaniyasining bosqinchilik rejasida SSSRni egallash qat'iy qilib qo'yilgan bo'lsa-da, ular vaziyatdan yutib, Yevropani bo'ysundirish maqsadida 1939 yil avgustida sobiq ittifoq bilan 10 yil muddatga urushmaslik to'g'risida shartnoma imzoladi. Shartnomaga qo'shimcha maxfiy hujjat ham imzolangan bo'lib, unga asosan Germaniya Boltiq bo'yining (Litva, Latviya, Estoniya) SSSR ta'siriga o'tishini tan olgan edi.

Fashistlar Yevropada o'z maqsadlariga erishgach, hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnomani buzib, 1940 yil 18 dekabrda tasdiqlangan yashin tezligida urush qilish (–Barbarossa||) rejasiga muvofiq, 1941 yilning 22 iyunida urush e'lon qilmay sovet ittifoqi hududiga bostirib kirdi. Butun ittifoq xalqi uchun, uning tarkibidagi O'zbekiston va o'zbek xalqi uchun ham urush boshlangan.

Hayotning barcha sohalari harbiy izga solinib, mamlakat harbiy lagerga aylantirildi. Sovet davlati front ortini mustahkamlash maqsadida *“Hamma narsa front uchun!”*, *“Hamma narsa g'alaba uchun!”* degan muhim shiorlarni maydonga tashladi.⁸

Urush respublika qishloq xo'jaligining rivojlanishini ancha sekinlashtirib ko'ydi-yu, lekin to'xtata olmadi. Kolxoz tuzumining, planli sotsialistik xo'jalikning afzalliklari mexnatni ratsional tashkil etishni, qolgan mashinalardan, qishloq xo'jalik asboblardan va ot-ulovlardan unumli foydalanishni ta'minlashga imkon berdi.

Ikkinchi jahon urushidan avvalgi yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligi asosan paxta yetishtirishga ixtisoslashgan bo'lib, aholi iste'molidagi qator oziq-ovqat mahsulotlari sobiq Ittifoqning boshqa hududlaridan keltirilardi, masalan, don mahsulotlari asosan Rossiya va Ukrainadan olib kelingan. Urush boshlangach, respublikaga boshqa hududlardan don va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari keltirishi to'xtab qoldi.

O'zbekiston aholisi Ittifoq g'arbidan evakuatsiya qilinganlar hisobiga ortishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni oshirdi va ta'minot masalasini yanada

⁸<https://staff.tiame.uz/storage/users/408/books/o9qm30vz5ZVEHpDaPtI8SI7ve1ZK6NROHviKfvGB.pdf>

murakkablashtirdi. 1941 yilga qadar O'zbekistonda 6,5 million aholi bo'lgan bo'lsa, 5 oy ichida evakuatsiya qilinganlar hisobiga taxminan 10 foizga ko'paydi. Bu holat ta'minot rejalarini qayta ko'rib chiqishni va mavjud zahiralarni miqdorini ko'paytirishni talab qilar edi.

O'zbekiston aholining don mahsulotlariga talabini qondirish uchun ekstensiv xo'jalik yuritish usullarini tanladi. Respublika bo'yicha g'alla yetishtirishga mo'ljallangan yer maydonlari ko'paytirildi. Masalan, Andijon viloyatida g'allaga ajratilgan yer maydoni 1941 yilda 2375 gektar bo'lgan bo'lsa 1942 yilda 38146 gektarga yetdi, ya'ni 16 barobar oshdi. Bundan tashqari, sabzavot-poliz ekinlari uchun yer maydonlari ham kengaytirilib, paxta uchun ajratiladigan yerlar kamaytirildi. O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1942 yil 15 apreldagi 571-sonli qarori bilan oziq-ovqat ekinlarini ekish uchun respublika kolxozlariga qo'shimcha 147,9 ming gektar (shundan 122,6 ming gektar g'alla va dukkakli ekinlarga, 14,8 ming gektar sholiga, 9,1 ming gektar zig'irga) ajratildi.

Urush yillarida paxta yalpi hosilining kamayishi aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashni yaxshiladi, degan fikrga kelish noto'g'ri bo'ladi. Chunki paxta chigitidan o'simlik yog'i olinadi. Paxta yalpi hosilining kamayishi, o'z navbatida respublikada o'simlik yog'i ishlab chiqarish hajmi ozayib ketishiga olib keldi. 1941 yilda respublikada 123,4 ming tonna o'simlik yog'i ishlab chiqarilgan edi. 1942 yili esa o'simlik yog'i ishlab chiqarish 85 ming tonnagacha pasaydi.

Ma'lumki, yog' kilokaloriya birligida hisoblanganda oqsil va uglevodlarga nisbatan to'yimlidir. Shuningdek, qayta ishlangan paxta chigitidan chorva mollari uchun to'yimli ozuqa olish mumkin. Paxta yalpi hosilining kamayishi chorvachilikni ozuqa bilan ta'minlashda salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Yuqorida qayd etilgan uslubda O'zbekiston aholisi urush yillari tanqis bo'lgan non va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan qoniqarli darajada ta'minlandi. 1942 yilda 1941 yilga nisbatan umumiy g'alla hosili 60%ga ko'paydi. 1940-1943 yillar davomida O'zbekistonda g'alla yalpi hosili 53 million puddan 104 million pudga ko'paydi, deyarli 2 barobar. Respublikada g'alla asosan Samarqand, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida yetishtirildi va g'allachilikda bug'doy (52,3%) va arpa yetishtirish yetakchi o'rinlarni egalladi.⁹

Shu bilan bir qatorda, ayrim hollarda tomorqa xo'jaliklarini noto'g'ri tashkil qilish natijasida, buning iqtisodiy foydasidan ko'ra zarari ko'p bo'lgan. Masalan, 1942 yilda O'zbekiston Xalq Komissarligiga qarashli to'qimachilik korxonalarini

⁹ <https://www.uzanalytics.com/tarix/7277/>



qoshidagi tomorqa xo'jaliklari norentabel faoliyati tufayli 26 mln. so'm zarar ko'rdi.¹⁰

Urush yillarida non va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ta'minoti masalasi bilan birga taqsimot masalasini ham unutmaslik kerak. Hozirgi davr bozor iqtisodiyoti va iqtisodiy rivojlanish sharoitida "oziq-ovqat taqsimoti" va "kartochka tizimi" kabi tushunchalar faqat tarixiy lug'at va kitoblardan joy oldi. Ammo yaqin tariximiz – sobiq Ittifoq davrida oziq-ovqat, kiyim-kechak va sanoat mahsulotlarining yetishmovchiligi odatiy holga aylangan edi.

Oziq-ovqat mahsulotlari kartochka tizimi asosida taqsimlanishi ma'lum ma'noda urush davri uchun zarur tadbir edi. Yetishtirilgan mahsulotlarning aksariyat, ko'p qismi frontga yo'natilgan. Ishchilar, xizmatchilar va ularning oila a'zolari 250-600 gr. miqdorida kunlik non bilan ta'minlangan (1-rasm). Kartochkalarda boshqa mahsulotlar ham belgilangan bo'lsada, ular amalda har doim ham bo'lavermagan.

Ikkinchi jahon urushi O'zbekiston iqtisodiyotiga katta zarar yetkazganligini ayniqsa, qishloq xo'jaligi tizimi katta qiyinchiliklarga duch kelganidan ham anglash mumkin.

Urush yillarida sohada amalga oshirilgan chora-tadbirlar o'zining ziddiyatliligi bilan ajralib turardi. Biroq, Vatan himoyasiga shaylangan O'zbekiston xalqi sohadagi mavjud muammolarga barham berishga, tarmoqni rivojlantirishga harakat qilgan, hamda uning uddasidan chiqqan. Shuningdek, beqiyos mehnat namunalarini ko'rsatgan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Hidoyatov G. Jaxon tarixi (1941-1945 yillar). - T. 2002
2. Tippelyukirx K Istorik Vtoroy miroioy voyii. (1939-1945gg) - SP6. 1994.1.1
3. Узбекистан в годы Великой Отечественной войны (1941-1945)
4. Вклад трудящихся Узбекистана в победу в Великой Отечественной войне. – Ташкент: Фан, 1975. – 250 с.
5. Усмонов Қ, М. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йидлар). - Т, 2002
6. "Усмонов Қ, М. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йидлар). - Т, 2002 - Б 136
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрь ПҚ-4495- сонли –Иккинчи жаҳон урушида қозонилган Ғалабанинг 75 йиллигини муносиб нишонлаш тўғрисида|| қарори. - <https://lex.uz/docs/4664439>

¹⁰ <https://www.uzanalytics.com/tarix/7277/>

8.<https://staff.tiame.uz/storage/users/408/books/o9qm30vz5ZVEHpDaPtI8Sl7ve1ZK6NROHviKfvGB.pdf>

9.<https://www.uzanalytics.com/tarix/7277/>



WOC
WORLD
ONLINE
CONFERENCES

